

**MAKTABDA O`SMIRLAR ORASIDA XULQI OG`ISHINING OLDINI
OLISHDA PSIXOLOGNING O`RNI**

*SURXONDARYO VILOYATI SHERABOD
TUMANI 18- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
RAJABOV O`RAL ABDUXALIL O`G`LI*

Annotatsiya: Maqolada xulqi og`ishganlikning sabablari va uni profilaktika qilishning psixologik yo`llari haqida so`z boradi. Shuningdek, maqola mazmunida xulqi og`ishganlik, deviant xulq, voyaga yetmagan yoshlar, anomiyaga moslashish, xulqi og`ishganlikni oldini olishning zamonaviy choratadbirlari, psixoprofilaktik, pedagogik ishlar majmui kabilar ham keng yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Xulq, xulqi og`ishganlik, shaxs, psixologiya, voyaga yetmagan yoshlar, deviant xulq, addektiv xulq, bezorilik, o`g`irlik, giyohvandlik, tajovuzkorlik, ijtimoiy faollik.

KIRISH

O`zbekiston hozirgi davrda ta`limda, shu jumladan, psixologiya fanida ham chuqur islohotlarni amalga oshirmoqda. Bunday sharoitda mustaqil fikrlovchi, islohotlarda faol ishtirok etuvchi, kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo`lgan shaxsni shakllantirish, ushbu jarayon samaradorligini ta`minlash ham yoshlarning tarbiyasi va umumiy kasbiy tayyorgarligiga, ularning ta`lim jarayonida mutaxassislik fanlarini chuqur o`rganish holatiga bog`liqdir. Lekin ayrim yoshlarimiz orasida xulqida og`i osh xolatlari xam kuzatilmoqda. Bu holatda, birinchi navbatda, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirishda ma`naviy, axloqiy, psixologik ta`sir vositalarining ahamiyati kattadir.

Asosiy qism

Ma`lumki, inson va uning xulq -atvori, jamiyatdagi o`rni har doim qator fanlar uchun qiziq hodisa sanalib kelgan. Qolaversa, har bir davlat va jamiyatning istiqboli, buguni hamda kelajagi o`sib kelayotgan yosh avlodlarning intellektual darajasi bilan belgilanishi tabiiydir. Biroq, bugungi kunda, inson xulq -atvoriga salbiy ta`sir etuvchi, uni jamiyat normalaridan uzoqlashtiruvchi shunday omillar mavjudki, ularni erta bartaraf qilmasdan turib, barkamol yosh avlod haqida gapirish ehtimoldan holi sanaladi. Xulqi og`ishganlik keng ma`noda, fanlararo tadqiqotlarning predmeti sanalib, har bir fanda mazkur muammoni o`rganishda o`ziga xos ilmiy yondashuvlar mavjud. Zamonaviy psixologiyada, xulqi og`ishganlik tushunchasi “deviant xulq” fenomeni bilan tavsiflanib, u o`z mazmunida “o`z joniga qasd qilish”, “giyohvandlik”, “boshqalarga nisbatan tajovuzkorlik”, “tobe xulq”, “jinoyatchilik” kabi og`ishgan xulq kabilarni ham qamrab oladi. Hozirda fanda xulqi og`ishganlikning paydo bo`lish

sabablarini tushuntiruvchi bir qancha ilmiy yondoshuvlar, ilmiy konsepsiyalar va tamoyillar mavjud. Ana shu ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalarni tizimli o'rganish shuningdek, mahalliy psixologiyada mazkur masalada amalga oshirilgan ilmiy ishlar va manbalarni yangicha mazmunga olib chiqish kabilar o'ta muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu bois ham, mazkur masalaga oid har qanday ilmiy chora-tadbirlar, o'ta dolzarb ahamiyatga ega ishlar turkumidan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi N. Smelzer xulqi og'ishganlik masalasida shunday deydi: "xulqi og'ishganlik – bu jamiyatda o'rnatilgan me'yorlar va qoidalarga mos kelmaydigan harakatlar deb tushunish lozim". Boshqa bir tadqiqotchi Robert Mertonning so'zlariga ko'ra esa, "deviant xulq-atvor" kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bu, jamiyat tomonidan ilgari surilgan maqsadlar va ularga erishish vositalari o'rtasidagi nomuvofiqlikdir, boshqacha qilib aytganda, odamlar "anomiya" holatiga turli yo'llar bilan moslashadilar: konformizm bilan yoki xulq-atvordagi turli xil og'ishlar bilan. A.V.Xomich o'z izlanishlarida xulqi og'ishganlikni "qamoq yoki boshqa jazoga olib keladigan me'yordan chetga chiqish" harakati deb ta'riflaydi. Xulqi og'ishganlikka yaqqol misol bu – giyohvandlik vositalaridan foydalanishdir. Ya'ni yoshlarning giyohvand moddalarga va psixotrop dorilarga psixologik qaramligi yoki unga tibbiy giyohvandlik, jismoniy qaramlik va hokazo Deviant xulqli yoshlar va tarbiyasi qiyin bolalar muammosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mazkur tushunchalar 1920-1930-yillarda mutaxassislar e'tiboriga tusha boshladi. Dastlab, u fan sohasida emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ishlatilgan. Biroq, ushbu muammo bir oz vaqt unutilib, 1950-1960-yillarning boshlarida yana soha mutaxassislari e'tiborini torta boshlagan. Bu borada birinchi bo'lib rus psixologi P.P.Blonskiy tadqiqot olib borgan. Muallif o'z tadqiqotida deviant xulqli voyaga yetmagan bolalarni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganib chiqqan. Xuddi shunday izlanishlarni mamlakatimiz psixolog olimlari ijodida ham uchratish mumkin. Voyaga yetmagan yoshlar orasida xulqi og'ishganlik masalalari hamda, deviant xulqli o'smirlar muammosi O'zbekistonpsixolog va pedagoglari ishlarida ham o'ziga xos tadqiq etilgan. psixolog olimlar, xulqi og'ishganlikning turlarini turli yoshdagi obyektlarda o'rganishga muvaffaq bo'lishgan. Mazkur mualliflar guruhining xulosalariga ko'ra, voyaga yetmagan yoshlar orasida, xulqi og'ishganlik paydo bo'lishini oldini olish asosiy usullari sifatida sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, ularda axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nimasi kuchaytirishg, maktabga va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi oshirish, o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan kognitiv faollikka undash, deviant xulqli o'smirlarni jamoaviy faoliyatga faol aralashtirish orqali, uni bartaraf etish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar. Voyaga yetmaganlar orasida namoyon bo'luvchi deviant xatti-harakatlarining asosiy sabablaridan biri bu, oiladagi muhitdir. Bizningcha, oila inson erta ijtimoiylashishning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Bolalar juda muhim bo'lgan asosiy qadriyatlarni, me'yorlarni, xatti-

harakatlarning hamda stereotiplarini oiladan o'rganadi. Va bu orqali ularning emotsional sohasi rivojlana boradi. Agar ushbu masalada qator tadqiqotchilarning tushunchalariga murojaat qiladigan bo'lsak, xulqi og'ishganlik asosan o'smir yoshdagi bolalarga xos odatiy xatti-harakatlardir. Chunki, yoshlar bu harakatlari orqali o'zlarini ota-onalari, o'qituvchilari va tengqurlariga ma'qul ko'radilar. Ya'ni o'zini ko'z-ko'z qilish, o'zlaricha ish tutish, kattalarni tinglamaslik, yomon insonlarga taqlid qilish, chekish, o'g'irlik qilish va hokazo. Bunday xulqi og'ishgan xatti-harakatlarga e'tibor bermaslik, o'z navbatida o'smirlarni noto'g'ri yo'lga olib boradi, ularni jinoyat sodir etishga undaydi shuningdek, ularning ma'naviyatini buzadi va oxir-oqibat ular jamiyatda yoqimsiz, va nafratli insonlarga aylanadi. Voyaga yetmagan yoshlarda ko'p narsalarga qiziqish ortadi yoki biror bir narsaga tez moslashadi, ularning xarakteri boshqa yoshdagi shaxslarga nisbatan boshqacha bo'ladi, ular o'zlarining hayot yo'llari haqida o'ylashga harakat qiladilar, o'rganishning mazmuni va maqsadini tushunadilar, jamoada o'z o'rnini bilishni xohlaydilar. Deviant xulq-atvor ko'pincha o'smir yoshlar orasida tez-tez uchraydi. Chunki, o'smirlik eng og'ir davr bo'lib, har xil noodatiy sodir bo'ladi va bu davr do'stlik me'yorlarini o'rganish uchun ham, muvaffaqiyatli davr hisoblanadi. O'smirlik yoshiga xos xususiyatlar – bu mustaqillikka intilish boshqalarga bo'ysunmaslik. Shuning uchun, ular o'z kuchini va shaxsining ma'nosini tushunishga intiladilar. Bunday holatni ya'ni, tushunish imkoniyatlarini maktab ta'limi va mehnat jarayonidagi ishtirokidan ko'rish mumkin. Buning sababi shundaki, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan bolalar o'zlarining tipik xususiyatlari tufayli, hayotda qiyinchiliklarga duch kelishadi va ularning aqliy imkoniyati, to'siq bo'layotgan muammoni bartaraf etish yo'lini topa olmaydi. Bundan tashqari, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan bolalar, o'zini hech kimga kerak emasdek his qilishga o'rganib qoladi, biroq aybni kattalarning zimmasiga yuklaydi, atrofdagilar bilan tez-tez nizolashib turadilar. Shu bilan birga, ularda bo'sh vaqtdan maqsadsiz foydalanish, maktab tartibini saqlamaslik, qonun-qoidalarni buzish, jinoyatga qo'l o'rish kabi harakatlar ham ba'zida uchrab turadi. Deviant xulq - bu ijtimoiy me'yordan chetga chiqish. U jamiyatda qabul qilingan me'yorga zid bo'lgan xatti - harakatlar tizimi sifatida ta'riflanadi. Deviant xatti-harakatlar ikkita keng toifaga bo'linadi. Avvalo, bu psixologik salomatlik me'yoridan og'ishdir. Ikkinchidan, bu ba'zi ijtimoiy-madaniy me'yorlarni, ayniqsa, huquqiy normalarni buzuvchi jamiyatga zid faoliyatdir. Shuningdek, deviant xulqli yoshlar bu – muntazam ravishda ma'muriy jazo qo'llanilishiga olib keladigan huquqbuzarliklarni sodir etishi orqali, misol uchun, ataylab maktabdan, uydan qochishi yoki maxsus ta'lim muassasalarini muntazam tark etishi, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lmagan jinoyatlar belgilariga ega bo'lishidir. Xulqi og'ishganlikni profilaktika qilish – bu ijtimoiy muhitning salbiy omillarining shaxsga ta'sirini erta bartaraf etish va yoshlarda normal hayot tarzini qaror toptirishga qaratilgan psixologik, ijtimoiy-psixologik, pedagogik va

tibbiy chora-tadbirlar majmuidir. Deviant xulq-atvorning oldini olish choralari umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Umumiy profilaktik choralar – bu shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini baqaror kechishi uchun psixologik-pedagogik, ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan, bir qator ogohlantirish tadbirlari majmuidir. Maxsus profilaktika choralar – bu aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bo'lib, unda giyohvandlik, huquqbuzarlik, bezorilikka moyil bolalar va ular xulqini profilaktikasini amalga oshirishga doir psixologik targ'ibot - tashviqot ishlari turkumidandir. Xulosa qilib aytganda, xulqi og'ishganlikni erta bartaraf etish ishlari o'ziga xos murakkab vazifa sanalib, ushbu muammo masalaga boshqacha, yangicha ilmiy yondashuvni talab etadi. Agarda ta'lim tarbiyada bo'shliq yuzaga kelsa, u holda yoshlar o'z vaqtlaridan unumli foydalanish, yuksak maqsadlar sari intilish, kognitiv faol bo'lish, jamiyat hayotiga ijtimoiy faol bo'lish kabi sifatlardan yiroqlashadilar. Qolayevrsa, yoshlar guruhi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda do'stlik, hamrohlik, mehr-oqibatlilik, hurmat va halollik kabi sifatlarning o'z vaqtida shakllantirilsa, shundagina xulqi og'ishganlikning oldi olinishi hamda ularni ta'lim muhitiga faol ijtimoiylashtirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umedjanova M. L., Salikhov S. M., Salikhov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T.2. – №.
2. – С. 271-276. 2. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
3. Salixov S. M., Salixov T. M. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 1013- 1019.4.
4. Salixov S. M. et al. Musobaqa oldi sportdagi stress va tayyorgarlikning psixologik tomonlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1039-1044.